O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

«SHARQSHUNOSLIK SOHALARINI TADQIQ ETISHNING DOLZARB MASALALARI» MAVZUSIDA YOSH SHARQSHUNOSLARNING AKADEMIK UBAYDULLA KARIMOV NOMIDAGI XIX RESPUBLIKA ILMIY–AMALIY KONFERENSIYASI

TO‘PLAMI

«FAN»
Toshkent – 2024

UO‘K 314.151(575)(08)
KBK 607(543)
Y 83

«Sharqshunoslik sohalarini tadqiq etishning dolzarb masalalari» mavzusida Yosh sharqshunoslarning akademik Ubaydulla Karimov nomidagi XIX respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi to‘plami. – Toshkent: «Fan» nashriyoti, 2024. – 286 b.

Taqrizchilar:
O‘ktambek Sultonov – tarix fanlari doktori, professor.
Sherali Qo‘ldoshev **–** tarix fanlari nomzodi, dotsent.

Tahrir guruhi:
Laziz To‘rayev – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Akbar Idiyev, Maftuna Mirzayeva, Sherzod Karimov, Dostonjon Tojiyev, Farrux Kamoliddinov.

Ushbu to‘plamda qadimgi davrdan bugungi kungacha bo‘lgan sharqshunoslik sohasidagi dolzarb masalalar, tarix fani oldida turgan muammolar va ularning yechimlari, tarixshunoslikka oid tadqiqotlar, til, adabiyot hamda manbashunoslik masalalari, Sharq rennesansi davri allomalari ilmiy merosining o‘rganilishi, qadimiy yozma manbalarning muomalaga kiritilishi kabi masalalarga qaratilgan tadqiqotlar o‘rin olgan. To‘plam sharqshunoslar, tarixchilar, adabiyotshunoslar, tadqiqotchilar va keng kitobxonlar ommasi uchun mo‘ljallangan. To‘plam tarkibidan o‘rin olgan maqolalar mualliflarning ilmiy tadqiqot natijalari va shaxsiy ilmiy qarashlarini o‘zida aks ettiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Ilmiy kengashining 2024-yil 3-maydagi 5-sonli majlisi qarori asosida nashrga tavsiya etilgan.

© Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti.
© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti.
© «Fan» nashriyoti, 2024.

ISBN 978-9910-9030-5-2

TEMURIYLAR DAVLAT BOSHQARUVIDA XOJA MAJDUDDIN MUHAMMADNING TUTGAN O‘RNI

KARIMOV Sherzod Shavkat o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti
2-bosqich tayanch doktoranti
ORCID: 0009-0002-8212-7744

THE POSITION OF KHWAJA MAJD AL-DIN MUHAMMAD IN THE STATE ADMINISTRATION OF TIMURIDS

KARIMOV Sherzod
Al-Biruni Institute of Oriental Studies of
Uzbekistan Academy of Scinces,
Doctoral student
ORCID: 0009-0002-8212-7744

Abstract. *The study of Timurids state administration has been an urgent issue in all periods. Because the peace and security of the vast empire required the establishment of a strong administrative apparatus to regulate its financial, economic and social life. Therefore, the activities of these state officials are also one of the important objects. In this article, the role of Khwaja Majd al-din Muhammad, who left a great mark in the history of the Timurid state with his ministerial management activities, in the political life of the country was analyzed based on the sources of the 15th-16th centuries. At the same time, the part of the work "Dastūr al-wuzarā" written in Persian by Ghiyāth al-din ibn Humām al-din Khwandamir, a great historian of the Timurids era, about Khwaja Majd al-din Muhammad was translated into Uzbek for the first time and put into scientific circulation.*

Ma’lumki, Sohibqiron Amir Temur (736/1336–807/1405) asos solgan Temuriylar davlati (771/1370–912/1506) Movarounnahr va Xuroson hududlaridan tashqari Eron, Ozarbayjon, Iroq, Shom, Shimoliy Hindistongacha bo‘lgan o‘lkalarda siyosiy barqarorlik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minladi. Amir Temurning vafotidan keyin Xuroson, xususan, Hirot shahri Temuriylarning eng yirik markaziga aylandi. Shu bilan birgalikda, Xuroson o‘lkasi XV asrning ikkinchi yarmida Temuriylar tasarrufida bo‘lgan boshqa hududlarga qaraganda ancha osoyishta va ilm-fan ravnaq topgan hududga aylandi. Albatta, Hirotning bunday ulkan mavqega ega bo‘lishiga faqatgina temuriy hukmdorlarning emas, balki hukmdorlar qo‘l ostidagi vazirlarning hissasi bor bo‘lib, shu jihatidan ularning faoliyatini ham tadqiq etish muhim hisoblanadi. Ana shunday vazirlardan biri Xoja Majduddin Muhammad edi.

Xoja Majduddin Muhammadning faoliyati to‘g‘risida bir qancha tadqiqotlarda ma’lumot berib o‘tilgan. V.V. Bartoldning *“Мир Али Шир и политическая жизнь”*

[5] asarida, A.A. Semenovning *“Взаимоотношения Алишера Навои и Султана Хусайн Мирзы”* [11] nomli maqolasida, T. Fayziyevning *“Temuriylar shajarasi”* [8], D.Y. Yusupovaning *“Жизнь и труды Хондамира”* [16] nomli monografiyasida, Sh. Sirojiddinovning *“Amir Alisher. Hayoti va faoliyati”* [12] kabi asarlarida Xoja Majduddin Muhammadning faoliyati Temuriylar davlati, Sulton Husayn Mirzoning yoki Alisher Navoiyning hayoti va faoliyati doirasida tadqiq etilgan. Lekin, yuqorida sanab o‘tilgan adabiyotlar bevosita Xoja Majduddin Muhammadning faoliyatiga qaratilmagani bois u haqida yetarlicha ma’lumot ololmaymiz. Mazkur maqolada esa uning hayoti va faoliyati haqida XV – XVI asr manbalari va keying davr tadqiqotlari asosida fikr yuritamiz.

Uning to‘liq ismi Xoja Majduddin Muhammad ibn Xoja G‘iyosuddin Pir Ahmad Xavofiy bo‘lib, tug‘ilgan yili noma’lum, vafoti esa 899/1494-yilga [9: 250] to‘g‘ri keladi. Zaynuddin Mahmud Vosifiy uni *“Miri Kalon”* nomi bilan ham mashhur bo‘lganini aytib o‘tgan [18: 96]. Otasi Xoja G‘iyosuddin Pir Ahmad Xavofiy ham Temuriylarning vazirlaridan bo‘lib, uning Xoja Majduddin Muhammad ismli birodari bo‘lgani, u esa 838/1435-yili Hirotda tarqalgan vabo tufayli vafot etgani ma’lum [10: 54].

Xoja G‘iyosuddin Pir Ahmad Xavofiyning o‘g‘li Xoja Majduddin Muhammad faoliyatining boshida Sulton Abu Said Mirzoning (1424–1469) saroyida *insho* lavozimida [14: 98*a*] Nizomuddin Abdulhay munshiy bilan sherikchilikda ishlagan [15: 752]. Agar Sulton Abu Said Mirzo 861/1457-yil Xurosonni egallab, Hirotni o‘z poytaxtiga aylantirganini inobatga olsak, ana shu vaqtlardan boshlab Xoja Majduddin Muhammadning siyosiy faoliyati boshlanganini bilib olamiz. Shu tariqa Sulton Abu Said Mirzoning vafotiga qadar uning xizmatida bo‘ldi.

873/1469-yil Sulton Husayn Mirzo (1438–1506) Hirot taxtini egallagach uning xizmatiga o‘tdi. Dastavval Kichik Mirzo nomi bilan mashhur bo‘lgan, Mironshoh Mirzoning avlodidan hisoblanmish Sulton Muhammad Mirzoning (1458-1484) vazifalarini bajarib yurar edi. Kichik Mirzo Sulton Husayn Mirzo tomonidan yuksak qadrlanib, uni sohibixtiyor[40] etib tayinlagan edi [8: 97]. O‘sha vaqtlarda Sulton Husayn Mirzoning nazar-e’tiboriga tusha boshlagan edi.

Bora-bora uning mavqeyi kundan-kunga oshib borib, hatto saltanat hujjatlariga imzo chekish vakolatiga ham ega bo‘ldi. Xondamir Alisher Navoiyning noibligi va Xoja Majduddin Muhammadning vazirligi natijasida mamlakat ravnaq topganini qayd etadi [15: 752]. Biror hujjatga amir yoki vazirning muhri bosilganiga qaramay Xoja Majduddin Muhammad unga *“ko‘rib chiqdim”* (اطلع عليه) deb imzo chekardi [17: 401]. Sulton Husayn Mirzo saltanat taxtida o‘tirib, davlat ishlarini muhokama qilayotganida, Xoja Majduddin Muhammad sulton taxti yonida yolg‘iz o‘tirar, mol-mulk va boshqa masalalar bo‘yicha shikoyatchilarning arizalarini sultonga topshirardi va har bir hukmni yozib olar edi.

Ko‘plab davlat amaldorlarining unga nisbatan nafrati ham oshib bordi. Jumladan, Abulqosim Bobur zamonida *yasavul*[41] bo‘lgan [15: 752], keyinchalik ulug‘ amirlar qatoridan joy olgan Amir Hasan Shayx Temur ham Sulton Husayn Mirzoga bu boradagi o‘z e’tirozini bildirganida ham sulton bunga ahamiyat

[40] Sohibixtiyor – ixtiyor egasi; saroy boshqaruvchisi [3: 112].
[41] Yasavul – qorovulboshi; intizom saqlovchi [3: 597].

bermagan [17: 401]. Shu tariqa Xoja Majduddin Muhammad davlatning barcha mol-mulk masalalari va devon ishlarining rahbariga aylandi va bu lavozimni mustaqil o‘zi boshqardi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, O‘rta asrlardagi musulmon mamlakatlarida, xususan, Temuriylar davlatida ham vazirlik yoki bosh vazirlik lavozimining bir kishi tomonidan boshqarilishi uning juda katta nufuzga ega ekanligini bildirgan. Chunki, aksar hollarda devonbegilar ikki kishi bo‘lishgan va aynan ularning vakolatlarini cheklab turish uchun ham hukmdorlar tomonidan bir vaqtning o‘zida *“qo‘shvazirlar”*ni lavozimga tayinlaganlar. Masalan, Amir Temur zamonida Xoja Ali Simnoniy va Xo‘ja Sayfuddin Tusiylar [14: 92*b*], Shohrux Mirzo zamonida Xoja G‘iyosuddin Pir Ahmad va Xoja Nizomuddin Ahmad Dovudlar [14: 95*a*], Sulton Abu Said Mirzo zamonida esa Xoja Ismoil Xo‘joniy va Xoja Qutbuddin Tovuslarlar [17: 377] ham *“qo‘shvazir”* bo‘lishgan. Kamdan kam hollarda nufuzi baland shaxslar yolg‘iz vazir lavozimiga tayinlangan. Bunday bo‘lishiga yana bir sabab esa, hukmdorning unga nisbatan yuksak ishonchi tufayli bo‘lishi ham mumkin.

Xondamirning ta’kidlashicha [17: 400], Xoja Majduddin Muhammad vazirlik faoliyatining boshida hech bir kishining qalbiga dog‘ yoki yara qoldirmadi. Chunki u katta-yu kichik barcha moliyaviy masalalarni muhokama qilardi, ma’lumotlar yetib kelishi bilan ularga jiddiy yondashardi. Haqiqatan, Xoja Majduddin Muhammad saltanatning barcha ishlarini bajarish uchun zarur va kerak bo‘lgan darajada ishlagan. Shuningdek, odamlarga adolat ko‘rsatib, xalqning saviyasini oshirish, mamlakatni rivojlantirish uchun tahsinga loyiq ishlarni bajardi.

878/1473-1474-yillarda Xoja Afzaluddin Muhammad vazirlikka tayinlangach, Xoja Qavomuddin Nizomulmulk bilan birgalikda Xoja Majduddin Muhammadni poraxo‘rlik va saltanat mulklarini talon-taroj qilishda ayblashdi [15: 765]. Shuning uchun Xoja Majduddin Muhammadni sultonning buyrug‘iga asosan Amir Badruddin uning molini undiruvchi qilib tayinlandi. Tergovni esa Sulton Husayn Mirzoning o‘zi shaxsan nazoratga oldi va Xoja Majduddin Muhammadga o‘z moyilligini bildirdi. Chunki, Xoja Majduddin Muhammad ular tuhmat qilganichalik saltanat mulklarini o‘zlashtirmagan edi. Sulton Husayn Mirzo uni 60 ming *kepaki*[42] mablag‘ hisobiga ozod qilishni buyuradi [15: 765].

Shu tariqa bir muddatdan so‘ng Xoja Majduddin Muhammad Amir Muhammad Ali Atka bilan sherikchilikda *parvonachi*[43] lavozimini boshqardi. To‘qqiz yil davomida 892/1486-1487-yillargacha shu zaylda faoliyat yuritdi [13: 766]. O‘sha paytlari Xoja Afzaluddin Muhammad Kermoniy va Xoja Qavomuddin Nizomulmulklar *sohibi devonlikni*[44] sherik bo‘lib boshqarardilar. Xoja Majduddin Muhammadning martabasini Sulton Husayn Mirzo bir necha marta ko‘tarishga urinsa ham, lekin Alisher Navoiy bunga to‘sqinlik qildi [12: 126]. Alisher Navoiy Sulton Husayn Mirzo tomonidan 892/1487-yil Astrobod viloyatini

[42] Kepaki yoki kabakiy — chig‘atoiylardan Kepakxon chiqargan kumush tanga. Bir dinor kepaki ikki misqol kumushga yoki olti dirhamga teng bo‘lgan. Tarixiy manbalarning ma’lumotlariga ko‘ra, kepaki dastlab Buxoro, Balx shaharlarida zarb etilgan. Temuriylar davrida ham pul muomalasida ko‘p ishlatilgan [13: 552].

[43] Parvonachi – podshohning hukmini yetkazuvchi, vazir muovini [2: 561]. Parvonachi ba’zan noib deb ham atalib, u Sulton muovini hisoblangan [16: 142].

[44] Sohibi devon yoki vaziri a’zam – devonbegi, hukumat devoni boshlig‘i [4: 17, 44].

boshqarish uchun yuborilganidan keyingina Xoja Majduddin Muhammadga yana avvalgi mansab va vakolatlari qaytarib berildi. Bunga sabab Xoja Afzaluddin Muhammad Kermoniy va Xoja Qavomuddin Nizomulmulklarga Sulton ikki *tuman*[45] *kepaki* mablag‘ kerakligini aytganida ular jo‘yali davob bera olmaydilar. Ular chiqib ketgach Xoja Majduddin Muhammad *“a’lo hazratga ikki tuman emas, balki, ikki ming tuman pul zarur bo‘lib qolganda ham har yili har biri devon molidan katta-katta mablag‘ni o‘zlashtirayotgan bu ikki xoja shu zahoti topib berishlari kerak edi”* [15: 788], deb aytadi. Shundan so‘ng uni yana avvalgi barcha vakolatlariga qaytardi. Ayni shu masalada ba’zi tarixchilar Xoja Majduddin Muhammadni vazirlikka qaytarish uchungina Alisher Navoiy Astrobodga “surgun” qilingan degan fikrni ilgari surishadi [12: 126, 129].

Xoja Majduddin Muhammad poytaxtda Alisher Navoiyning yo‘qligi tufayli vakolati yanada ortib bordi. Amirlar va vazirlar har kuni uning ostonasini ziyorat qilishga o‘tdi. Rasmiy hujjatlarga ham kotiblar Sultonning buyrug‘i asosida uning ismini *“Saltanat tayanchi va mamlakat ishonchi”* (معتمد السلطنة ومؤتمن المملكة) [15: 789] unvoni bilan yozishni boshlashdi. Bu uning haqiqatan juda katta obro‘ga va vakolatga ega bo‘lganini ko‘rsatadi. Shu bilan birgalikda Xoja Majduddin Muhammad saltanatning barcha idoralari ishlarini mustaqil ravishda tekshirar edi. Uning maslahatisiz amirlar va vazirlar orasidan biror ish qilgan kishi qattiq jazolanar edi. Davlat amaldorlari xalqdan pora sifatida bir dinor yoki meva ham ololmasdi. Vazirlar, oliy devon amaldolari va soliq undiruvchilarining mol-mulklarini musodara qilib, qisqa vaqt ichida ikki ming tuman mablag‘ to‘plab, davlat xazinasiga qaytarildi [15: 790].

U kunning yarmini davlat ishlari bilan mashg‘ul bo‘lib o‘tkazsa, qolgan yarmini mamlakatdagi eng ulug‘ shoirlar, olimlar bilan uchrashuv o‘tkazib, bazm uyushtirar edi [17: 407]. Xondamirning ta’kidlashicha [17: 408], Xojaning bu galgi hukmronlik davri qarib uch yil davom etib, yurtni obod qilish, xalqni xursand qilish uchun harakat qildi. Bu haqda Zahiriddin Muhammad Bobur ham *“... imkoni boricha sa’y va ehtimom qilib, oz fursatta sipohi va ra’iyatni rozi va shokir qildi. Xizonag‘a ham vofir yormoqlar tushurdi, viloyatni ma’mur va obodon qildi”* [6: 99], deb ta’kidlagan.

Xoja Majduddin Muhammadning siyosiy faoliyati yaxshi davom etayotgan bo‘lsa-da, lekin uning shaxsiy sifatlarini yaxshi deb bo‘lmas edi. Chunki, u atrofdagilarga xushmuomalalik qilmas, jahli tez chiqar, g‘azabiga uchraganlarga nisbatan o‘ta shafqatsiz edi [15: 790]. Alisher Navoiyning oldida unga xushomadgo‘ylik qilsa ham, uning yo‘qligida uni g‘iybat qilib, fursat tug‘ilishi bilan Sultonga Navoiyni nojo‘ya xatti-harakatlarda ayblardi [17: 408]. Shuning uchun ko‘plab amirlar va vazirlar Xoja Majduddin Muhammadning bu ishlari haqida Sulton Husayn Mirzoga xabar berganlaridan so‘ng sultonning unga bo‘lgan munosabati o‘zgardi. Shu bilan birga, Alisher Navoiyning ukasi Darvesh Alining Sulton Mahmud Mirzoga Xoja Majduddin Muhammadning Alisher Navoiyga nisbatan tuhmat qilayotganliklari haqida yozgan maktubidan [15: 802] ham Xoja Majduddin Muhammad lavozimidan ketishini bilib, Sultondan iste’fo berishini

[45] Tuman – o‘n ming [3: 254].

so‘radi. Sulton Husayn Mirzo uni vazifasidan ozod qilgan kuni Xojaga yuz ming *kepaki dinor*[46] va qimmatbaho libos hadya qildi [15: 802; 17: 409].

Sulton Husayn Mirzo Balx va Qandahorga borganida fursatdan foydalangan Xoja Majduddin Muhammad Hirotdan chiqib yashirindi. Chunki bu vaqtda Xoja Qavomuddin Nizomulmulkning o‘g‘illari Xoja Kamoluddin Husayn va Xoja Rashiduddin Abdulmaliklar u haqida turli bo‘htonlarni tarqatib yurgan edilar [15: 815]. Xoja Majduddin Muhammad Hijozga ketishga taraddud ko‘rganida Sulton Husayn Mirzo navkarlari uni qidirib yurganlarini bilgach safarni qoldiridi. Sulton Husayn Mirzo Hirotga qaytgach Xoja Majduddin Muhammad Amir Shujouddin Muhammad Burunduq va Amir Jahongir kabi barlos amirlari bilan yashirincha bog‘lanib, ular bilan yaxshi munosabatlar o‘rnatish uchun pora berib, vazirlik lavozimiga qaytish uchun yordam bersalar ularni ham qo‘llab-quvvatlashlari haqida kelishib olishdi [15: 816; 17: 411].

Bu ikki amir Xoja Majduddin Muhammadni vazirlikka qaytarish uchun bor kuchlarini sarfladilar. Sultonga bir necha marta bu haqida ham aytib ko‘rishdi. Aftidan, Sulton bunga rozi bo‘lmagan. Chunki Xoja Majduddin Muhammad bu masalada Abdurahmon Jomiyga ham murojaat qilgan [17: 411]. Abdurahmon Jomiyning sa’y-harakatlari natijasida Xoja Majduddin Muhammad devon ishlariga qaytdi [15: 817]. Bog‘i Jahonorodagi[47] bo‘lib o‘tgan bu majlisda Xoja Majduddin Muhammad Sultonga 20 ming *dinor kepaki* hadiya qildi [15: 817]. Lekin uning obro‘si va vakolatlari avvalgidek emasdi. Sulton huzuridagi majlisda ham unga bo‘lgan e’tibor juda past edi.

Shu asnoda Sultonning odamlaridan biri kelib Xoja Majduddin Muhammadni Sulton yana avvalgi lavozimlariga qaytarmoqchi ekanini, shuning uchun kerakli odamlarning ismlarini yozib berishini so‘rab keladi [17: 412]. Bundan xursand bo‘lgan Xoja Majduddin Muhammad unga aytilgan vazifani bajaradi. Lekin ertasi kuni juma namozidan so‘ng Xoja Majduddin Muhammadni Amir Muhammad Ali Atkaning uyiga qamaydilar. Unga yordam bergan Amir Shujo‘uddin Muhammad Burunduq hamda Amir Jahongirlarni Ixtiyoruddin qal’asiga[48] qamaydilar [15: 818; 17: 412]. Bir necha kundan so‘ng amirlar va vazirlar Xoja Majduddin Muhammadni so‘roq qilish uchun Hirot *dorug‘asi*[49] Ahmad Mirzoning[50] (1414-1498) devoniga keltirishadi. Bu yerda avval vazir bo‘lgan Imoduluslomdan boshqa hech kim uning yonini olmadi. Tergovda Xoja Ne’matullohni nima uchun qatl qildirganini so‘rashganida Xoja Majduddin Muhammad sakson nafar soliq yig‘uvchilar Sulton mablag‘larini o‘zlashtirganini, bunga aybdor esa Xoja Ne’matulloh ekanini ta’kidlaydi [17: 413]. Shunga o‘xshash bir nechta savol-javobdan so‘ng Muhammad Amr Obodiy so‘roq qilishni boshlaydi. Lekin Xoja Majduddin Muhammad uning savol berishini xohlamaydi. Chunki Muhammad Amr Obodiy ilm-u ma’rifatdan yiroq, johil inson edi. Xoja Majduddin Muhammad,

[46] Dinor – oltin tanga; oltin pul; pul birligi [1: 493].
[47] Bog‘i Jahonoro – Hirot shahridagi mashhur bog‘lardan, keyinchalik uni Badiuzzamon Mirzo o‘z qarorgohiga aylantirgan [7: 281, 296].
[48] Ixtiyoruddin qal’asi – Hirotdagi istehkom qal’a [7: 199].
[49] Dorug‘a – shahar tartibini nazorat qiluvchi mirshab; bosh mirshab [1: 505].
[50] Amir Temurning o‘g‘li Umarshayx Mirzoning Seydi Ahmad Mirzodan bo‘lgan nevarasi. U umrining oxirigacha Sulton Husayn Mirzoning zamonida Hirot dorug‘asi bo‘lgan [8: 97].

oʻzimga teng boʻlgan inson menga savol bersin, deganida Muhammad Amr Obodiy “Men sendan ustunman. Chunki men asli ozod kishiman, sening onang esa sotib olingan kanizak edi” [17: 414], deydi. Bunday haqoratlarni koʻtara olmagan Xoja Majduddin Muhammad oʻziga tegishli boʻlgan barcha jinoyatlarni tan olgan holda hujjat yozib berdi. Xoja Majduddin Muhammadni esa Amir Muhammad Ali Atka uyiga olib ketdi [15: 819; 17: 416].

Xoja Majduddin Muhammad yozib bergan hujjat Sulton Husayn Mirzoga yetib borganida uning barcha mol-mulklari hisob-kitob qilinishini buyurdi. Shunday qilib, Xoja Majduddin Muhammad tergovchilarga koʻp miqdorda oltin, zargarlik buyumlari, noyob kitoblar va ashyolar, shuningdek, hayvonlarning zaharini yoʻqotadigan noyob dori-darmonlar, asl xitoy idishlari va anjomlari, ipak kiyimlar va rang-barang naqshli chodirlarni koʻrsatdi. Shuncha narsaning hatto oʻndan birining borligini tasavvur qila olishmasdi [15: 819; 17: 416].

Shunga qaramasdan Sulton Husayn Mirzo Xoja Majduddin Muhammadga zarar yetishini xohlamas edi. Hatto kim unga zarar yetkazsa oʻldirilshi haqida ham ogohlantirdi [15: 819; 17: 416].

Amirlar va vazirlar bundan Sulton Xoja Majduddin Muhammadni yana vazirlikka qaytarmoqchi ekanligini tushinishdi. Xojani iloji boricha uzoqlashtirish uchun bor kuchlarini sarflashdi. Xoja Majduddin Muhammadni qoʻyib yuborishlari uchun undan katta miqdorda mablagʻ talab qilishdi. Avvaliga bunga rozi boʻlgan Xoja Majduddin Muhammad, pulni toʻlay olmay, Hirotdan ketishga majbur boʻldi. Shu tariqa Hijoz yurtlariga haj safarini amalga oshirish uchun yoʻl oldi va Tabukka yetib borganida vafot etdi [15: 819; 17: 416].

Xoja Majduddin Muhammadning vafoti “Habib as-siyar”da kelgan ma’lumotga koʻra [15: 821] 899-yil zulqa’da/1494-yil avgust oyiga toʻgʻri keladi.

Xulosa. Xoja Majduddin Muhammadning siyosiy faoliyati bilan tanishar ekanmiz, shu bilan bir qatorda, Temuriylar davlati, xususan, Sulton Husayn Mirzoning davlat boshqaruvini ham oʻrganish mumkinligiga guvoh boʻlamiz. Xondamirning bergan ma’lumotlarga tayanib Xoja Majduddin Muhammadning bu davlatning rivojiga va moliyaviy ahvolining yuksalishiga katta hissa qoʻshganini koʻrishimiz mumkin. Vazirlarning oʻzaro xusumatkashligi va bir-birlari bilan adovatlari borligini ham e’tiborga olib, bu davlatning inqiroziga sabab boʻlgan omillardan biri deb shuni koʻrsatishimiz mumkin. Chunki, Xoja Majduddin Muhammadning lavozimidan toʻla ozod etilganidan soʻng ham davlat amaldorlarining oʻzaro kelishmovchiliklari bora-bora Temuriylar davlati inqirozining kuchayishiga olib keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Фозилов Э. И. таҳрири остида. I жилд. Тошкент: “Фан”– 1983.
2. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Фозилов Э. И. таҳрири остида. II жилд. Тошкент: “Фан”– 1983.
3. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Фозилов Э. И. таҳрири остида. III жилд. Тошкент: “Фан”– 1984.

4. Аҳмедов Б. Соҳибқирон Темур. Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти – 1996.
5. Бартольд В.В. Мир Алишер и политическая жизнь. Сочин. в IX томах. Москва. “Наука” ГРВЛ. 1964. II том. Часть 2.
6. Бобур З. М. Бобурнома. Нашрга тайёрловчи Шамсиев П. Тошкент: “Янги аср авлоди” – 2015.
7. Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Оиё тарихий географияси. Тошкент: “Мумтоз сўз” – 2017.
8. Файзиев Т. Темурийлар шажараси. Тошкент: “Ёзувчи”, “Хазина” – 1995.
9. Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. XIII том. Мажолис ун-нафоис. Нашрга тайёрловчи Ғаниева С. Тошкент: “Фан”– 2001.
10. Самарқандий А. Матлайи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. II жилд. Форс тилидан таржима, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Ўринбоев А., географик номлар изоҳи муаллифи Бўриев О., тарихий шахслар, воқеалар ва атамалар изоҳи муаллифи Миркомилов Э. Тошкент: “Ўзбекистон” – 2008.
11. Семенев А.А. Взаимоотношения Алишера Навои и Султана Хусайн Мирзы//Сб. Исследования по истории народов Востока. Москва–Ленинград. Изд. АН СССР. – 1960. С. 279-285.
12. Сирожиддинов Ш. Амир Алишер. Ҳаёти ва фаолияти [матн]. Тошкент. “Адабиёт” – 2023.
13. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. IV жилд. Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти – 2002.
14. Хондамир Ғиёсуддин. Дастур ал-вузаро. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Шарқшунослик институти қўлёзмаси. Инв. № 55/I.
15. Хондамир Ғиёсуддин. Ҳабиб ус-сияр фи ахбори афроди башар. Форс тилидан таржима, муқаддима муаллифлари Ҳазратқулов Ж., Бекжонов И., изоҳлар муаллифлари Аҳмедов А., Бекжонов И. Тошкент: “Ўзбекистон” – 2013.
16. Юсупова. Д. Жизнь и труды Хондамира. Ташкент: “Фан” – 2006.
17. غياث الدين بن همام الدين معروف به خوندمير . دستور الوزراء. با تصحيح ومقدمه سعيد نفيسي. تهران. اقبال. 1357/1938.
18. Зайниддин Восифий. Бадоеъул вақоеъ (Нодир воқеалар). Форс тилидан Н. Норқулов таржимаси. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти – 1979.

MUNDARIJA

So‘zboshi 3

MANBASHUNOSLIK, TIL VA ADABIYOT

J. Özlem Oktay Çerezci. WOMEN ACCORDING TO THE ART WORKS OF UZBEKISTAN GOKTURK PERIOD..... 5

Ismatova Nargiza Adxamovna. XIX ASR IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARI BUXORO AMIRLIGIDA VAQF SUBYEKTLARI HOLATI 12

Rahimov Komiljon Rahmatovich. XOJA ORIF REVGARIY VA UNING «ORIFNOMA» ASARI QO‘LYOZMA NUSXALARI HAQIDA 19

Usmonov Ibrohim Sobirovich. HAKIM TERMIZIYNING “AL-FURUQ” KITOBIDA QIYOS – FIQHIY DALILI BAYONI 32

To‘rayev Laziz Abdivali o‘g‘li. “RABI’ AL-ABROR” ASARINING TARKIBIY TUZILISHI VA UNING MANBALARI..... 38

Saishanhuli W. TRANSLATION AND STUDY OF THE LITERATURE OF ABAY IN CHINESE 50

Abdullaev Botirjon. ABU RAYHON BERUNIYNING “TAFHIM” ASARI NUSXALARINING TOSHKENT VA DUSHANBE FAKSIMIL NASHRLARI HAQIDA 63

Agzamova Muhabbatxon Mirtoxirovna. “AL-KOMIL FIT-TARIX” ASARINING MANBAVIY ASOSLARI 72

Axmatov Amonkeldi. BUXORO ADABIY MUHIITINI O‘RGANISh MANBALARI 76

Baqoyev Umidjon Shuhrat o‘g‘li. MUHAMMAD TOLIBNING “MATLAB UT-TOLIBIN” ASARI ASHTARXONIYLAR VA BOBURIYLAR SULOLASI DIPLOMATIK MUNOSABATLARINI O‘RGANISHDA MUHIM MANBA SIFATIDA 80

Burgutxonov Saidumarxon. IBN HAZM ANDALUSIYNING “AL-FISOL” ASARIDA ISLOMDAGI YO‘NALISH VA FIRQALARNING YORITILISHIDAGI O‘ZIGA XOSLIKLAR 84

Diniqulov Abror Gulboy o‘g‘li. SHART MAYLIDAGI ARAB MAQOLLARINI O‘ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH USULLARI 89

Jumaniyazov Mansur Davlatbayevich. ZIYOVUDDIN MAKKIY XORAZMIYNING «KIFAYATU-N-NAHV FI ILMI-L-E’RĀB» ASARINING TARKIBI 93

Ismoilov Mas’udxon Maxdievich. XOJA MUHAMMAD PORSONING “TAHQIQOT” ASARIDA KALOM VA TASAVVUFNING NAZARIY MASALALARI UYG‘UNLIGI 108

Mirzayeva Maftuna Murodillo qizi. XVI-XVII ASRLARDAGI HUKM HUJJATLARINING STRUKTURAVIY JIHATLARI 114

Murodova Risolat Davron qizi. MUZEYLARDA AMALIY SAN’AT BUYUMLARINING KONSERVATSIYA VA RESTAVRATSIYA ASPEKTLARI 119

Nasirillayeva Nodirabegim Furqat qizi. BIBLIOGRAF OLIM ABDULLA NOSIROV VA UNING “BILKAT” ASARI HAQIDA 125
Oripov Davronbek. “O‘G‘UZNOMA“DAGI OYQOG‘ON OBRAZI VA UNING “KITABI DADAM QO‘RQUD”DAGI OBRAZLARGA TA’SIRI 129
Ravshanov Alijon. ZAMONAVIY MOLIYAVIY MASALALARGA BAG‘IShLANGAN FIQHIY ASARLAR TAHLILI 134
Samsakova Husniyaxon Xalxodjayeva. BOBOXONOVLAR SHAXSIY KUTUBXONASIDAGI QO‘LYOZMALARNING DASTLABKI TAHLILI 142
Sirojiddinova Maftuna Baxodirovna. ARABSHOHIYLAR SAROY DEVONIGA TEGISHLI QONUNChILIK AKTLARI (dastlabki tahlil natijalari) 147
Sulaymonova Hulkar Mo‘minjonovna. “AR-RASAIL” ASARINING GERMANIYA FONDLARIDA SAQLANAYATGAN QO‘LYOZMALARI XUSUSIDA 153
Umaraliyev Sherzodjon Abdulaxat o‘g‘li. SIROJUDDIN O‘SHIY “FATOVOI SIROJIYA” ASARIGA MUROJAAT ETGAN HANAFIY MAZHABI MANBALARI 159

TARIX VA TARIXSHUNOSLIK MASALALRI

Hulstine Matthew. CONVERGING NARRATIVES: THE SIGNIFICANCE OF ‘ALIMQUL’S FALL ..165
Azimov Xurshid. QADIMGI XITOY MANBALARIDA MARKAZIY OSIYO DAVLATLARINING JOYLASHUV “XARITASI” 171
Ahmedova Dilafruz. BUXORO AMIRLIGI DIPLOMATIK MUNOSABATLARINING “INSHO” MAJMUALARIDA YORITILISHI 175
Idiyev Akbar Avaz o‘g‘li. SHAYBONIYLAR DAVRI SIYOSIY JARAYONLARIDA ETNIK BIRLIKLARNING ARALASHUVIGA DOIR 180
Kamoliddinov Farrux Burxoniddin o‘g‘li. MARKAZIY OSIYO RESPUBLIKALARINI FORS KO‘RFAZI ARAB DAVLATLARI BILAN ALOQALARINING QAYTA BOSHLANISHI TARIXIGA NAZAR 185
Karimov Sherzod Shavkat o‘g‘li. TEMURIYLAR DAVLAT BOSHQARUVIDA XOJA MAJDUDDIN MUHAMMADNING TUTGAN O‘RNI 189
Karimova Miyassar Jamoldinovna. O‘RTA OSIYOLIK SAVDOGARLARNING SHARQ MAMLAKATLARI BILAN SAVDO ALOQALARI 196
Ostonov Jahongir Davlatovich. FRANSUZ SHARQSHUNOSI POL PELYONING ILMIY FAOLIYATIGA NAZAR 205
Pilipchuk Yaroslav Valentinovich. ГОСУДАРСТВЕННОСТЬ И ЭТНИЧНОСТЬ УСУНЕЙ 210
Tojiyev Doston Beknazar o‘g‘li. TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI DOIRASIDAGI HAMKORLIK: ILMIY-MADANIY HAMDA SIYOSIY SOHALAR MISOLIDA 216
Fayzullayev Farrux Eshqabulovich. UBAYDULLAXONNING MUHAMMAD SHAYBONIYXON YURISHLARIDA ISHTIROKI 223
Xayrullayeva Iroda Faxriddinovna. HIND XOTIN-QIZLAR TA’LIMI EVOLYUSIYASI (JAMMU VA KASHMIR MISOLIDA) 230

Xakimova Nigora. ZAMONAVIY TADQIQOTLARDA «MAHOSIN» ASARI O‘RGANILISHINING TAHLILI 237
Xusnutdinov Flipp Romanovich. МЕЖДУ ПОЭЗИЕЙ И ПОЛИТИКОЙ: ПОЧЕМУ ЛИДЕР ТУРКЕСТАНСКОЙ ДИАСПОРЫ В САУДОВСКОЙ АРАВИИ УПОДОБЛЯЛ СОВЕТСКОЕ ГОСУДАРСТВО СОВЕ? 242
Ermatova Mushtariy Abdulla qizi. QO‘QON XONLIGINI O‘RGANISHGA OID YANGICHA QARASH VA YONDASHUVLAR 248
Yakubov Qahramon Karimdjanovich. XIVA XONLIGI MADRASALARI TARIXINING ZAMONAVIY TARIXSHUNOSLIKDA YORITILISHI: YANGICHA YO‘NALISH VA YONDASHUVLAR 254
Qorayev Sherxon Po‘latxonovich. MANBALARDA BUXORO AMIRI ABDULAHADXON IJODI VA ADABIY KECHALARI TARIXI 262
G‘oyibnazarova Mahmuda O‘ktamjon qizi. “OYINA” JURNALIDA TURKISTONDAGI IQTISODIY MASALALARNING YORITILISHI 267
G‘ofurov Jasur Isaqovich. USTRUSHONA QISHLOQ MAKONLARINING ME’MORIY – QURILISH LOYIHASI VA USULLARI XUSUSIDA (V-VIII ASRLAR) 272
Abdupattaev Mo‘min Mirzo Murodjon o‘g‘li. MUHAMMAD IBN AHMAD XORAZMIYNING DINSHUNOSLIKKA OID QARASHLARI..... 278

«SHARQSHUNOSLIK SOHALARINI TADQIQ ETISHNING DOLZARB MASALALARI» MAVZUSIDA YOSH SHARQSHUNOSLARNING AKADEMIK UBAYDULLA KARIMOV NOMIDAGI XIX RESPUBLIKA ILMIY–AMALIY KONFERENSIYASI

TO‘PLAMI

Muharrir
Bunyod Pattayev

Badiiy muharrir
Murodillo Rahmonov

Musahhih
Jasur Qutbiddinov

Sahifalovchi
Doniyor Murodov

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Ilmiy kengashining 2024-yil 3-maydagi 5-sonli majlisi qarori asosida nashrga tavsiya etilgan.

Nashriyot litsenziyasi № 7538, 25.05.2022-y.
20.05.2023-yilda bosishga ruxsat etildi.
Qog‘oz bichimi 60x84 $^{1}/_{16}$. “Cambria” garniturasi.
Shartli bosma tabog‘i 20. Adadi: nusxa.
Buyurtma raqami №: 14-24.
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
“Fan” nashriyoti davlat korxonasida
nashrga tayyorlandi va chop etildi.
100047, Toshkent sh., Yahyo G‘ulomov ko‘chasi, 70-uy. Tel.:
+99899 7917555, +99871 2622154